

## 7. Takrorlash

Yondosh mavzu:  
O'simliklar

O'zaro teskari masalalar,  
mantiqiy masalalar.



1. Namunaga qarab xona qo'shiluvchilarining yig'indisi ko'rinishida yozing.

$$15 = 10 + 5$$

$$18 =$$

$$24 =$$

$$26 =$$

$$32 =$$

$$47 =$$

2. Chizma chizing va uning asosida teskari masalalar tuzing.

Yodgorliklar do'konida yong'oqdan yasalgan 27 ta o'yinchoq va 51 ta savatcha sotildi. Jami nechta qo'l mehnati ishlari sotildi?

3. Eman daraxtining balandligi 35 metr, yong'oqning balandligi 24 metr, chinorning balandligi 25 metr. Eman daraxti yong'oqdan necha metr baland? Yong'oq chinordan necha metr past? Eman daraxti chinordan necha metr baland?

4. 2-sinf o'quvchilari botanika bog'ining iqlim hududlari bo'ylab tarqalishdi. Agar 2-“A” Shimoliy Amerika hududiga bormaganligi, 2-“B” Sharqiy Osiyo hududiga borganligi ma'lum bo'lsa, har bir sinf qayerga borganligini aniqlang.

	Sharqiy Osiyo	Shimoliy Amerika	Uzoq Sharq
2-“A”			
2-“B”			
2-“D”			



5. a) Tomoni 4 santimetr bo'lgan teng tomonli uchburchakning perimetrini toping.  
 b) Uchburchakning har bir tomonini 2 santimetrga kamaytiring. Perimetr necha santimetrga kamaydi?
6. 2, 5, 7, 14 sonlari hamda “+” va “–” belgilardan foydalanib, mumkin bo'lgan barcha tengliklarni tuzing.



7. Oxirgi rasmdagi narsalar qanday joylashtiriladi?



8. Daftaringizga jadvallarni chizing va ularni to'ldiring.

+	6		7	
8		11		10
1				
	10			
2				

+	20	12		11
5			13	
			16	
7				
6				



9. Qurigan barglardan yasaladigan applikatsiya uchun 21 ta olcha daraxti bargi, 23 ta o'rik daraxti bargi va bir nechta tok bargi kerak. Agar applikatsiya uchun jami 55 ta barg ishlatalgani ma'lum bo'lsa, o'quvchilarga nechta tok bargi kerak bo'lgan?